JIZZAX VILOYATI PAXTAKOR TUMANI HOKIMI
QARORI

2023 - yil 5 - may 107-3-52-Q/23 Paxtakor tuman hokimligi

Yo‘l belgisi hamda sun’iy notekislik o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 26-dekabrdagi 342-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo‘llari mintaqasida xavfsizlikni ta’minlash va tashkil etish qoidalari” talablari hamda 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlan to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori ijrosi yuzasidan piyodalar xavfsizligini ta’minlash, transportlar tirbandligini oldini olish maqsadida, viloyat ichki ishlar boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2023-yil 17-martdagi 10/6-649-N-46-sonli, tuman ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limining 2023-yil 6-apreldagi 41/60-sonli xatlarini hamda fuqarolarning murojaatlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5, 6 va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2023-yil 17-martdagi 10/6-649-N-46-sonli, tuman ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limining 2023-yil 6-apreldagi 41/60-sonli xatlari hamda fuqarolarning murojaatlari inobatga olinsin.

2. Quyidagi:

- “Do‘stlik” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi Yunus Rajabiy va Sug‘diyona ko‘chalari kesishmasiga 2.1 “Asosiy yo‘l” va 2.4 “Yo‘l bering” yo‘l belgilarini o‘rnatishga;

- “Dilorom” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan chiquvchi Xalqlar do‘stligi ko‘chasining Yunus Rajabiy ko‘chasi bilan qo‘shilgan qismi “Fayz” tantanalar majmuasi ro‘parasiga 2.1 “Asosiy yo‘l” va 2.4 “Yo‘l bering” yo‘l belgilarini o‘rnatishga;

- Sharof Rashidov ko‘chasining Abdulla Qodiriy ko‘chasi Sharof Rashidov ko‘chasining Sug‘diyona ko‘chasi bilan kesishmalariga 2.1 “Asosiy yo‘l” va 2.4 “Yo‘l bering” yo‘l belgilarini;

- “Do‘stlik” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi Sug‘diyona ko‘chasining “Milliy gvardiya” tuman bo‘limi binosining ro‘parasiga 1.31 “Sun’iy notekislik” va “Sun’iy yo‘l notekisligi” yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

3. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi (R.Zavqiev)ga yangi o‘rnatilayotgan yo‘l belgilarining amaldagi davlat namunasi (davlat standarti) asosida bo‘lishini qat’iy nazoratga olish topshirilsin.

4. Tuman ichki ishlar bo‘limi (Y.Akaboev) va IIB YHXB (A.Ashurov)larga tuman hududidagi ba’zi ko‘chalar bo‘ylab avtomobillar harakatining o‘zgarishi munosabati bilan piyodalar va avtomobillar harakatini tartibga solish va nazoratga olish vazifalari topshirilsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari O.Amanov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi v.b. **A.Ashurov**